

---

## OBISHIR MAHALLASIDA ICHKI KO'CHALAR BETONLASHTIRILMOQDA



Aytish lozimki, so'nggi iki yil davomida tumanimiz hududida keng ko'lamli obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. Tumanimiz uzra asrga tatigulik ishlar amalga oshirildi desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Istiqlolimizning 31-yillik to'yi arafasida tumanimizning barcha hududlarida qurib foydalanishga topshirilgan yangi va zamonaviy inshootlar, ijtimoiy soha ob'ektlarining xalqimiz ixtiyoriga berilishi ezgu niyat boshlangan obodonchilik ishlari samarasidir. Quvonarlisi, tumanimiz hududida amalga oshirilayotgan bunday ishlar xayrli maqsadlar bilan boshlangan ishlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Ayni kunda tumanimizning So'x mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Obishir" ko'chasida betonlashtirish ishlari olib borilayotir. Jamoatchilik nazorati ostida amlga oshirilayotgan obodonchilik ishlariga sifat jihatdan alohida e'tibor berilayotir.

Mazkur ko'chaning qariyb 1 kilometr masofasida betonlashtirish ishlari olib boriladi va bu maqsadga davlatimiz byudjetidan 450 million so'm mablag' yo'naltirilgan. Betonlashtirish ishlariga "PFK To'ron " MChJ ishchi-xodimlari birlashtirilgan.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**



**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-09-08 14:43:47